



MAKTAB TA'LIM TIZIMIDAGI MUAMMOLAR VA
ISTIQBOLLAR

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 1-kurs talabasi

Narzullayeva Feruza Zavqi qizi

Problems and prospects in the school education system

Annotation: *The article presents problems in the school education system and ways to solve them, as well as mentions new perspectives in the education system.*

Key words: *Innovative approaches, interactive, method, web design, approval process.*

Проблемы и перспективы в системе школьного образования

Аннотация: *В статье представлены проблемы в системе школьного образования и пути их решения, а также упомянуты новые перспективы в системе образования.*

Ключевые слова: *Инновационные подходы, интерактив, метод, веб-дизайн, процесс утверждения.*

Anotatsiya: *Maqolada maktab ta'lim tizimidagi muammolar keltirilgan va shu muammolarni qanday hal qilish usullari shu bilan birga ta'lim tizimidagi yangi istiqbollar haqida ham eslatib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *Innovatsion yondashuvlar, interaktiv, metod, web design, tasdiqlash protsesi.*

Xalq ta'limi respublikamiz ya'ni O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Aynan maktab ta'limining sifati va qulayligi davlatning rivojlanish istiqbollarini ko'rsatadi, shu bilan birga maktab ta'limining sifati yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida maktab ishlari davlat nazoratida ekanligi be'jizga ta'kidlab o'tilmagan. Maktabning barcha ishlari davlat tomonida nazorat qilinadi.

A. Avloniy aytganidek: "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot -yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir. Mamlakatimizda bolalarning iqtidorini



aniqlash, o'qitish, tarbiyalash, ularni qo'llab quvvatlash, rag'batlantirish intellektual shakllangan bolalarni rivojlantirish uchun ko'p imkoniyatlar mavjud. Yangi va zamonaviy maktablar hamda prezident maktablari ta'limning qo'llab-quvvatlanayotganiga misol bo'ladi.

Maktab ta'lim tizimidagi muammolarga keladigan bo'lsak, hozirda ko'pchilik insonlar maktab ta'lim tizimidan qoniqishmaydi. Bu holat boshqa davlatlarda ham kuzatilmoqda. Agar biz muammolarning negizini o'rganadigan bo'lsa, hukumat maktablarining asosiy muammosi bu -tizimlashtirishdir. Ba'zi xususiy maktablarga qaraganda hukumat maktablarida tizimlashtirish yetishmaydi. Har bir maktabda "tasdiqlash protsesi" bor. Biroq bu tizim to'laqonli ishga tushmagan. Bundan tashqari maktablarda darsliklar oldingi tizimda kamida 7 yoki 8 yilda almashtiriladi. Biroq, hozirgi kunda ular har 4 yoki 5 yilda almashtiriladigan bo'ldi. Endi o'ylab ko'ring bu vaqt ichida qanchadan qancha yangiliklar kirib keladi hayotimizga. Xorijiy mamlakatlarni misol qilib oladigan bo'lsak, hozirda Rossiyada 10-11 sinf o'quvchilari "Web design" o'rgatilmoqda. Yurtimizda esa bu maktabdan tashqari o'qitiladi. Biroq yurtimizda ham bugungi kunda prezident, ijod maktablari hamda maxsus ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyat olib bormoqda, bu bir tizimga solingan zamonaviy metodlarda dars o'tadigan maktablar desam adashmagan bo'laman. Bu maktablarga 2017-yildan boshlab asos solingan bo'lib, qisqa vaqt ichida bu o'z natijasini ko'rsatdi. So'nggi yillarda davlat ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga katta e'tibor qaratmoqda. Jumladan, maktablar va oliy ta'lim muassasalari sonining oshishi, zamonaviy infratuzilma yaratish ishlari amalga oshirilmoqda.

Ta'limga ajratiladigan davlat byudjeti hajmi oshirilmoqda.

Elektron jurnal va kundaliklar, onlayn ta'lim platformalari (masalan, UzTELECOM yoki UzEdu tizimlari) rivojlantirilyapti.

Pandemiya davrida masofaviy ta'lim tizimlarining joriy etilishi tizimda yangi imkoniyatlar yaratdi.

O'zbekistonda ta'lim tizimi islohotlar jarayonida bo'lsa-da, ko'plab muammolarni hal qilishda tizimli yondashuv zarur. Xalqaro tajribadan foydalanish, o'qituvchilar malakasini oshirish va yoshlar uchun yanada keng imkoniyatlar yaratish



mamlakatning kelajakdagi rivoji uchun muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, ta'lim sifati va adolat tamoyillarini ta'minlash ustuvor vazifalar qatorida qolmoqda.

Ta'limning dolzarb muammolari

Yangi o'quv dasturlari va darsliklarni takomillashtirish.

O'qituvchilar malakasini oshirish.

Qishloq hududlarida ta'lim sifatini oshirish.

Ta'lim tizimini rivojlantirish va xalqaro standartlarga moslashtirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020 yil 23 sentyabr kuni qabul qilingan bo'lib, uning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Mazkur Qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy printsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi, unda belgilangan masofaviy ta'lim haqidagi qoidalar o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan.

Shuningdek, Qonunga ko'ra, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo'ldi. Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sischilari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan bo'ldi.

Qonunda dual ta'limga oid qoidalar belgilanib, u ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, qonunga inklyuziv ta'lim to'g'risidagi qoidalar kiritilib, unga binoan, inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun



ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etadi.

Mazkur qonun jahon standartlari talablaridan kelib chiqqan holda ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning qamrovi kengligi va o'ziga xos xususiyatga ega ekanligi bilan 1997 yil 29 avgust kuni qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonundan tubdan farq qiladi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ma'lum qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi.

Hususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Xulosa o'rnida, ta'lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalaridagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi".

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://yuz.uz/uz/news/talim-tizimi-va-yangicha-yondashuvlar>
2. <http://fyut.uz/?p=446>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekiston-respublikasida-ta-lim-sohasidagi-islohotlar>
4. <https://parliament.gov.uz/news/talim-sohasidagi-islohotlar-yangi-bosqichga-kotarildi>
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekcha_Vikipediya?wprov=sfla1